
MEHNATOBOD QISHLOG'IDA ICHIMLIK SUV TA'MINOTI YAXSHILANADI

Toshloq tumanida aholini ichimlik suvi bilan ta'minlashga qaratilgan dasturlar doirasida e'tiborga molik ishlar amalga oshirilmoqda.

Jumladan, joriy yilda aholini ichimlik suvi bilan ta'minlash borasidagi ishlar ko'lami ortdi. Bugungi kunga kelib, tumanda ichimlik suvi ta'minoti darajasi 81 foizga yetkazildi.

Ayni kunda hududlarni toza ichimlik suvi bilan ta'minlash maqsadida tumanning eng olis qishlog'i sanalmish "Mehnatobod" MFYda davlat dasturiga asosan suv qudug'i qazish ishlari olib borilmoqda.

Tez kunlarda mahalla aholisini qiynab kelayotgan muammo bartaraf etilib, 300 ga yaqin xonadon ichimlik suvi bilan ta'minlanadi.

2023-07-05 15:49:17